

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

10/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/10 (4) - 2024*

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

Норматов Бекзод Акром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети,  
Амалий психологияси кафедраси мудир;

Атабаева Наргис Батировна – психология  
фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги  
Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна –  
психология фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари  
университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари  
доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт  
бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология  
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон  
миллий университети кафедра мудир;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари  
доктори, профессор, Ўзбекистон миллий  
университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология  
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон  
халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар  
доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар  
доктори, доцент, Ўзбекистон миллий  
университети кафедра мудир.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Norbekov Ahmadjon Norbekovich</i> XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY HOLATI .....	11-18
<i>Eliboyev Ozodjon Po‘lat o‘g‘li</i> BAQTRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME‘MORCHILIGI.....	19-23
<i>Нуритдинова Нодира Сирожовна</i> XX-АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА).....	24-28
<i>Чориев Шоҳрух Холтура ўғли</i> ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА .....	29-38
<i>Жумаева Шоира Бердияровна</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ .....	39-43
<i>Jo‘rayev Muxriddin Xasanovich</i> MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO‘LLARI GEOGRAFIYASI.....	44-51
<i>Муқимова Рисолат Рустамжон қизи</i> ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР .....	52-56

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич</i> ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ .....	57-69
<i>Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna</i> MINTAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI .....	70-75
<i>Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich</i> QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI .....	76-86
<i>Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович</i> ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ .....	87-92
<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i> АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	93-102
<i>Qobiljon Isaev</i> O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A‘ZO BO‘LISHINI IQTISODIY VAHOLASH .....	103-110

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Xaitov Elmurod Bekmurodovich</i> O‘ZBEKISTONDA “AHOLI HAYOT SIFATI”GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) .....	111-116
<i>Расулов Зоҳиддин Усарович</i> СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ҲАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙҒУНЛИГИ .....	117-122
<i>Тавмурадов Жамшид Элмурадович</i> АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС .....	123-128
<i>Davronov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li</i> YUSUF QORABOG‘IY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROSI .....	129-132
<i>Muxtorova To‘tixon Solijonovna</i> FALSAFA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR VA AMALIYOTLAR .....	133-137
<i>Akramov G‘iyosiddin Najmiddinovich</i> MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI .....	138-142
<i>Ahmedova Dilrabo</i> DINIY BAG‘RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOY, MA‘NAVIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIY POTENSIALI .....	143-150
<b>11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Abdunabiyev Sunnat Botirovich</i> IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA BERILISHI .....	151-159
<i>Seytnazarova Injayim</i> ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI .....	160-168
<i>Tukhtakhodjaeva Zulfiya</i> PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY .....	169-174
<i>Abdusalomov Doniyor Togayali ogli</i> REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES .....	175-179
<i>Axmedov Anvar Botirovich</i> TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR .....	180-184
<i>Aminov Farrukh Komiljon Ugli</i> THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES .....	185-193
<i>Sharipov Bobur Salimovich</i> RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA .....	194-201
<i>Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna</i> ILMIY DISKURSNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	202-205

<i>Samatov Farxod Muminovich</i> O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDA “TV” SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO‘Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) .....	206-210
<i>Kendjayeva Zemfira</i> METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI.....	211-216
<i>Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi</i> INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA «HID», « IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI .....	217-221
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” TAZKIRASI VA SULAMIYNING “TABAQOT US-SUFIYA” ASARLARI O‘RTASIDAGI MUSHTARAKLIKLAR .....	222-226
<i>Шарапова Лола Станиславовна</i> ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА.....	227-232
<i>Ҳакимова Мастура Файзиллаевна</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЪНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) .....	233-239
<i>Mo‘soyeva Hayitgul O‘roqovna</i> “HEART” – “YURAK” SO‘ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI .....	240-245
<i>Mamataliyeva Navbahor Hujamberdiyevna</i> INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI .....	246-250
<i>Багаутдинова Ильмира Салаватовна</i> ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ .....	251-255
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich</i> EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN’S PUBLIC CIVIL SERVICE .....	256-268
<i>Алиев Асилбек Кадиорович</i> ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА .....	269-275
<i>Hong Weixing</i> INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA .....	276-284
<i>Султанова Сабохат Алишеровна</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	285-290
<i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i> O‘ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI .....	291-298
<i>Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи</i> ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ .....	299-304
<i>Khalikov Khayot</i> THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN’S YOUTH .....	305-311



Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА .. 312-317

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Толипов Бахтиёр Хамитович

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ ..... 318-324

Собирова Гулибарно Зайнитдин қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ  
РУССКОГО ЯЗЫКА ..... 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA  
INNOVATSION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR ..... 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDOCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI  
O'YINLARNING O'RNI ..... 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV  
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI ..... 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI ..... 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIV TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI  
HAQIDA ..... 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH METODLARI ..... 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI  
DASTURLARDAN FOYDALANISH ..... 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI  
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
IMKONIYATLARI ..... 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI ..... 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) ..... 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY  
TEKNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI ..... 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV  
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI ..... 393-399

*Nishonov Nodir Alimjanovich*

BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI  
RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI ..... 400-404

*Xidirova Durdona Muxtorovna*

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIMADANIY  
MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEKANIZMLARI ..... 405-408

**07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**

**Received:** 10 December 2024

**Accepted:** 15 December 2024

**Published:** 25 December 2024

*Article / Original Paper*

**POLITICAL AND SOCIAL AND ECONOMIC STATUS OF UZBEKISTAN IN THE FIRST HALF OF THE 20TH CENTURY**

**Norbekov Ahmadjon**

Navoi City School 23, Deputy director of academic affairs

**Abstract.** In this article reflects on the problems arising in the first half of the 20th century on the political and social and economic situation of Uzbekistan and their solutions.

Key words: Turkestan , Tsarist Russia, resettlement policy, Communist Party, Bolsheviks.

**XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTONNING SIYOSIY-IJTIMOY VA IQTISODIY HOLATI**

**Norbekov Ahmadjon Norbekovich**

Navoiy shahar 23-maktab, O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asrning birinchi yarmida O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy holati yuzasidan vujudga kelgan muammolar hamda ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston, Chor Rossiyasi, ko‘chirish siyosati, Kommunistik partiya, bolsheviklar.

Key words: Turkestan , Tsarist Russia, resettlement policy, Communist Party, Bolsheviks.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N01>

**Kirish.** XX asming boshlanishi Turkiston o‘lkasi tarixida eng jiddiy burilish yuz bergan davrlardan biriga to‘g‘ri keldi. O‘tgan o‘n yilliklar mobaynida o‘lka bag‘rida yetilgan jarayonlar ijtimoiy hayot yuzasiga qalqib chiqib, uning negizini qamrab olgan chuqur tanglikni ochib tashladi. Tashqi va ichki omillar tufayli vujudga kelgan bu jarayonlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir xil emas, lekin o‘zining yemiruvchilik ta‘siri jihatidan yaxlit edi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilinarkan, mazkur masala yuzasidan Jo‘rayev N., Karimov Sh.[1] hamda Ziyoyev H.[2] singari olimlar tadqiqot olib borishgan. Tadqiqot XX asrning birinchi yarmida O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy holatiga doir tadqiqotchi-olimlarning ilmiy materiallari hamda ushbu davr yuzasidan ochiq manbalariga joylashtirilgan ma‘lumotlar asosida olib borilgan. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik, izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiylik va xolislik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Muhokama.** XX asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududi tarkibiga uch davlat birlashmasi: Rossiya O'rta Osiyoni zabt etganidan keyin tuzilgan va uning tarkibiga mustamlaka sifatida qo'shib olingan Turkiston general-gubernatorligi, shuningdek, yuzaki ravishda mustaqil bo'lgan, ammo Rossiyaga qaram hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonligi kirar edi. O'sha vaqtda hududining kattaligi va aholisining ko'pligi jihatidan Turkiston o'lkasi yoki Turkiston deb atalgan Turkiston general-gubernatorligi eng yirik sanalardi. Uning tarkibiga Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Zakaspiy va Yettisuv viloyatlari kirar edi. O'lkadagi besh milliondan ko'proq aholining asosiy, ko'pchilik qismini o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar va boshqa yerli xalqlar tashkil etardi. Ularning hammasi islom diniga e'tiqod qiluvchi musulmonlar edi. Biroq o'sha vaqtda "musulmon", "musulmon aholi" tushunchalari diniy mazmunga emas, balki etnik mazmunga ham ega bo'lib, undan mahalliy aholini Rossiyadan ko'chirib keltirilgan rusiyzabon aholidan ajratish uchun foydalanilar, ko'chirib keltirilganlar soni o'lkadagi butun aholining o'ndan bir qismidan ham kam edi. Ko'pchilik aholi turmush darajasining pasayishi va uning qashshoqlashuvi bilan uyg'unlashib ketgan davomli turg'unlikka olib kelgan omillarning birinchi qatorida Turkiston jamiyatini g'arb usulida zo'rlik bilan yangilash (zamonaviylashtirish) turardi. Mustamlakachilik usullari bilan tashqaridan amalga oshirilgan bu yangilash jarayoni doimo qoloqlikda saqlash omiliga aylanib ketdi. Birinchidan, iqtisodiy ekspansiya (bosqinchilik) yillari mobaynida vujudga keltirilgan Turkiston xalq xo'jaligining yangi o'choqlari zo'r berib rivojlanayotgan paxtachilik, paxta tozalash, paxta yog'i ishlab chiqarish, qazilma xom ashyolarni qazib olish (konchilik), temiryo'l transporti tarmoqlari va boshqa sohalar o'lka milliy xo'jalik majmuasining tarkibiy qismi emas edi. Bu tarmoqlar Rossiya markaziy sanoat rayonlarining talab- ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, bular mahsulotining Turkiston doirasidan chetga chiqarilishi uni olinadigan foydadan butunlay mahrum etar, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini barbod qilardi? [1; 41-b.]. Ikkinchidan, kapitalistik ishlab chiqarish o'choqlarining barpo etilishi o'lka iqtisodiyotini izdan chiqardi, ko'p ukladli ijtimoiy tuzilmani vujudga keltirdi. Bunda, asosan, hunarmandchilik va kosibchilik ishlab chiqarishi metropoliya sanoat tovarlarining raqobati sababli tobora ko'proq tushkunlikka uchrab, yemirila bordi. Va, nihoyat, Rossiya iqtisodiyoti uchun ishlagan o'lka xo'jaligining echqonchilik - xom ashyo yetishtirish yo'nalishida bo'lishi, donli ekin maydonlarining qisqartirilishi, hunarmandchilik-kosibchilik ishlab chiqarishining tushkunlikka uchraganligi o'lkaning iqtisodiy jihatdan tobeligini yanada kuchaytirdi. Ana shu tobelik halokatli oqibatlarining butun og'irligini Birinchi jahon urushi (1914-1917) yillarida xalq ommasi o'z gardanida sinab ko'rdi: muntazam harakatda bo'lgan temir yo'llar ishidagi uzilish va barbod bo'lish hollarining tez-tez sodir bo'lib turganligi sababli oziq-ovqat tangligi va ocharchilik surunkali tus oldi.

Chorizm o'rnatgan va bosqinchi armiyaning nayzalariga tayanib o'lkani idora qilgan ma'muriy mustamlakachilik devonining cheklanmagan hukmronligi sharoitida kelgindi aholining barcha tabaqalari imtiyozli yashagani holda, iqtisodiy qoloqlik o'lkadagi mahalliy xalqning siyosiy huquqsizligi sababli ko'proq kuchayib bordi.

Madaniyat sohasida tashqaridan tiqishtirilgan zamonaviylashtirish jarayoni milliy madaniy merosni barbod etish, xalqning yashovchan an'anaviy qadriyatlarini yo'q qilish xavfini tug'dirdi.

Mustamlakachilik Turkiston xo'jaligining an'anaviy tarkibiga putur yetkazish bilan bir qatorda milliy asosda burjua yo'nalishida o'z ahvolini mustaqil ravishda o'zgartirish imkoniyatidan uni mahrum etdi, turg'unlikka, inqirozga, qoloqlikka mahkum qildi, ishsizlik o'sishiga, xalq turmush darajasi pasayib ketishiga ko'maklashdi. Bularning hammasi ijtimoiy

hayotda nizo va mojarolarni ko'paytirdi, siyosiy beqarorlikni, kuchlar qarama-qarshiligini kuchaytirdi. Xalq tartibsiz ravishda boshlagan ko'pgina qo'zg'olonlar buning dalili bo'lishi mumkin, bunday qo'zg'olonlar o'lkani doimo larzaga solib turdi. Tashqaridan zo'rlab tiqishtirilgan zamonaviylashtirish jarayoniga qarama-qarshi o'laroq, Turkiston jamiyati bag'rida bunga zid jarayon yetilib kelardi, bu jarayonning asosiy tamoyili mustamlakachilikka qarshi kayfiyat kuchayib borishida ifodalandi. Mavjud mustamlakachilik tartibi o'lkadagi yerli xalqlarning mustaqillikka erishishiga tahdid solishini, ularning an'anaviy turmush tarziga putur yetkazishini omma tobora ko'proq tushuna boshladi. O'z milliy mavqeyini himoya qilishga bo'lgan intilish xalq ommasining tartibsiz norozilik bildirishlarida namoyon bo'ldi. Turli vajlar sababli vujudga kelgan va mustamlakachilik tartibi asoslarini qaqshatgan xalqning tor mahalliy chiqishlaridan tortib, butun mintaqani qamrab olgan katta qo'zg'olonlargacha doimo islomni, mustaqillik va ozodlikni ximoya qilish shiorlari ostida o'tardi. 1916-yilgi qo'zg'olon o'lka xalqlarining ozodlik uchun kurash tarixiga yorqin sahifa bo'lib bitildi. Bu qo'zg'olon yerli aholining milliy o'z-o'zini anglashida, unda mustamlakachilikka qarshi, mustaqillik va islom negizlari buzilmasligi uchun kurash g'oyalari mustahkamlashda o'chmas iz qoldirdi [2; 76-b.].

Tarixiy jihatdan bu jarayonda musulmon ruhoniylari zimmasiga birlashtiruvchilik vazifasi yuklandi. Barcha darajadagi ulamolar (va'zxonlar, diniy o'quv yurtlarining muallimlari, qozikalonlar, xayr-ehson qiluvchi muassasalar boshqaruvchilari va boshqalar) o'z tasarruflarida bo'lgan tarbiya, maorif, ta'limning keng tarmoqlari - masjidlar, maktablar, madrasalar, oila, mahalla orqali islom mavqeini mustahkamlash, uning aqida va normalari, an'anaviy aloqalari va islom qadriyatlarining buzilmasligini saqlab qolish borasida muntazam ravishda ish olib bordilar.

Biroq, islomning shariat mavqeini mustahkamlashga va himoya qilishga qaratilgan siyosati, o'zi boshchilik qilgan kuchlarning niyatlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, musulmon jamiyati ijtimoiy tuzilmalarining aslida zaiflashuviga olib keldi, uning o'zi ishlab chiqaruvchi kuchlar turg'unligini vujudga keltirdi, o'z jamiyatining tashqi dunyodan yakkalanib, ajralib, begonalashib qolishini asta-sekin kuchaytirdi.

Turkiston jamiyatida yakkalanib qolish va qoloqlik xavfli ekanini anglash tobora yaqqolroq sezilayotgan edi. Turg'unlikka, xalq ommasi qashshoqlashuviga olib boruvchi tamoyillar o'lkadagi ilg'or namoyandalarni befarq qoldirmasligi mumkin emasdi. Jamiyatni isloh qilish, yangilash, zamon talablari bilan o'zaro bog'liq holda, boshqa sivilizatsiyalarning eng yaxshi ilmiy, texnikaviy va madaniy yutuqlaridan foydalanib, jamiyatni taraqqiyot, fan, ta'lim yo'lida rivojlantirish g'oyalari jamoatchilik ongida tobora kuchayib bordi [3; 66-b.].

Turkistonning aql-zakovatli kuchilari islomning insonparvarlik qadriyatlarini saqlab qolish, ijtimoiy hayot asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida uning mavqeini mustahkamlash yo'lini tutib isloh qilishni, uning aqidalarini zamonga moslashtirib talqin qilish zarurligini, odamlarning kundalik turmushida shariat asoslarini yumshatishni yoqlab fikr bildirdilar.

Ziyolilarning muayyan guruhi ana shu muddaolarning ongli ifodachilari sifatida maydonga chiqdilar, ularning ko'plari bir necha marta chet ellarda, Arab dunyosi mamlakatlarida, Turkiya va Rossiyada bo'lib, u yerda zamonaviy bilim olishgan, XIX asr o'rtalaridan boshlab islom mamlakatlarida rivojlangan islohotchilik harakati rahbarlari bilan shaxsiy muloqotlar ta'siri ostida yashardilar.

Ko'pgina yosh taraqqiyparvarlar Turkiyadan, Afg'onistondan va boshqa mamlakatlardan qaytib kelganlaridan keyin u yoki bu darajada panturkizm, panislomizm va panosiyocha g'oyalarning tarqatuvchilari bo'lishdi. Tilga olingan ta'limotlar milliy ozodlik harakatining mafkuraviy negizini shakllantirishga ta'sir o'tkazdi [1; 171-b.]. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, Tanzimat davridayoq Turkiyada vujudga kelgan (bu Usmonlilar imperiyasidagi islohotlar nomi bo'lib, feodal tuzumining tushkunligini biroz jadallashtirishga va burjua munosabatlarining paydo bo'lishiga yerdam berdi). panturkchilik XIX asrning 70-yillarida barcha turk xalqlarini milliy va davlat yo'li bilan birlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ta'limot edi. Ziyo Posho, Ahmad Vafiq Posho, Oxunzoda Mirza Fattoh Ali va boshqalar bu ta'limotning dastlabki mafkurachilari edilar.

Milliy siyosatning tangligi bilan bog'liq ba'zi jihatdan shunga o'xshash vaziyat chor Rossiyasida ham vujudga keldi. Ma'lumki, birinchi rus inqilobi ko'pgina xalqlarda milliy ozodlikka erishish borasida muayyan umid tug'dirgan edi. Lekin shundan keyin mazkur inqilobga aloqador bo'lgan hamma narsa ta'qib qilina boshlandi. Turkiy xalqlarning namoyandalari ham quvg'in qilindi.

Inqilobdan keyingi voqealar tatar, turkistonlik va ozarbayjon panturkchilarining turk panturkchilari bilan aloqalarini faollashtirish uchun turtki bo'lib xizmat qildi. Rossiya panturkchilari o'z faoliyatida turkiy xalqlarni siyosiy va madaniy erkinlikka erishish uchun olib borayotgan umumiy kurashda ularni birlashtirish (faqat Turkistondagina emas) zakovatli kuchlari islomning insonparvarlik qadriyatlarini saqlab qolish, ijtimoiy hayot asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida uning mavqeyini mustahkamlash yo'lini tutib isloh qilishni, uning aqidalarini zamonga moslashtirib talqin qilish zarurligini, odamlarning kundalik turmushida shariat asoslarini yumshatishni yoqlab fikr bildirdilar.

Ziyolilarning muayyan guruhi ana shu muddaolarning ongli ifodachilari sifatida maydonga chiqdilar, ularning ko'plari bir necha marta chet ellarda, Arab dunyosi mamlakatlarida, Turkiya va Rossiyada bo'lib, u yerda zamonaviy bilim olishgan, XIX asr o'rtalaridan boshlab islom mamlakatlarida rivojlangan islohotchilik harakati rahbarlari bilan shaxsiy muloqotlar ta'siri ostida yashardilar.

Ko'pgina yosh taraqqiyparvarlar Turkiyadan, Afg'onistondan va boshqa mamlakatlardan qaytib kelganlaridan keyin u yoki bu darajada panturkizm, panislomizm va panosiyocha g'oyalarning tarqaluvchilari bo'lishdi. Tilga olingan ta'limotlar milliy ozodlik harakatining mafkuraviy negizini shakllantirishga ta'sir o'tkazdi [1; 172-b.]. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, Tanzimat davridayoq Turkiyada vujudga kelgan (bu Usmonlilar imperiyasidagi islohotlar nomi bo'lib, feodal tuzumining tushkunligini biroz jadallashtirishga va burjua munosabatlarining paydo bo'lishiga yerdam berdi). panturkchilik XIX asrning 70-yillarida barcha turk xalqlarini milliy va davlat yo'li bilan birlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ta'limot edi. Ziyo Posho, Ahmad Vafiq Posho, Oxunzoda Mirza Fattoh Ali va boshqalar bu ta'limotning dastlabki mafkurachilari edilar.

Milliy siyosatning tangligi bilan bog'liq ba'zi jihatdan shunga o'xshash vaziyat chor Rossiyasida ham vujudga keldi. Ma'lumki, birinchi rus inqilobi ko'pgina xalqlarda milliy ozodlikka erishish borasida muayyan umid tug'dirgan edi. Lekin shundan keyin mazkur inqilobga aloqador bo'lgan hamma narsa ta'qib qilina boshlandi. Turkiy xalqlarning namoyandalari ham quvg'in qilindi.

Inqilobdan keyingi voqealar tatar, turkistonlik va ozarbayjon panturkchilarining turk panturkchilari bilan aloqalarini faollashtirish uchun turtki bo'lib xizmat qildi. Rossiya panturkchilari o'z faoliyatida turkiy xalqlarni siyosiy va madaniy erkinlikka erishish uchun olib borayotgan umumiy kurashda ularni birlashtirish (faqat Turkistondagina emas) g'oyasini targ'ib qildilar, bu g'oyani Sharq xalqlarining milliy uyg'onish bayrog'i deb hisobladilar.

Tabiiyki, bu ta'limot doimo mavjud bo'ladigan o'zgarmas narsa emasdi.

Siyosiy qarashlarning rivoji jarayonida aql-idrok bilan ish ko'ruvchi ko'pgina mafkurachilar, ortodoks odamlardan farqdi o'laroq an'anaviy panturkchilikdan voz kechib, yangi nuqtai nazarni, turkiychilik nuqtai nazarini (turkizmni) ilgari surdilar. Ular turkiychilik g'oyasini ko'pgina xalqlarning o'zaro mustahkam siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatadigan bir qancha mustaqil milliy davlatlarni vujudga keltirish yo'lidagi ko'p asrlik orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan real kuch, deb hisoblardilar (shuning uchun ham keyinchalik bolsheviklar hukumati panturkizmga qarshi jon-jahdi bilan kurashgan edi).

1921-1924-yillar o'zbek xalqi tarixida o'ziga xos bir bosqich bo'ldi. Bu davr bolsheviklarning oktyabr to'ntarishi, istiqloqlolchilarga qarshi kurash va "Harbiy kommunizm" siyosati oqibatida vayronaga aylangan xalq xo'jaligini tiklash va turli ijtimoiy kuchlar, ijtimoiy harakatlar siyosiy kurashlarining kuchayganligi, bolsheviklar rahbariyatining "sotsialistik qurilish" strategiyasini isloh qilish borasidagi dastlabki urinishlari va Turkiston bilan Markaz o'rtasida imperiyacha munosabatlarning yanada mustahkamlanishi bilan ajralib turdi.

**Natijalar.** Mustabid sovet hukumati dastlabki kundanoq mamlakatda "kommunizmga sakrash" siyosatini o'tkazishga kirishdi. Bu hol o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan Turkiston hayotining barcha jabhalarini ostin-ustin qilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalarda har tomonlama buzilishlarni keltirib chiqardi. Shu bilan birga, bu o'zgarishlarning umumiy yo'nalishi aniq ifodalangan salbiy xususiyatga ega bo'ldi. Milliy tafakkur tarziga yot bo'lgan sotsialistik davlatchilik andozasining zo'rlik bilan singdirilishi, yangi tipdagi totalitar (mustabid) - mustamlakachilik rejimi tayanch tuzilmalarining majburan yuzaga keltirishi tanglik holatlarini yanada kuchaytirdi, Turkiston xalqini haqiqatda halokat yoqasiga olib kelib qo'ydi. Chunonchi, mustabid tuzum fuqarolarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishi, uning o'tkazgan ommaviy qatag'onlari va quvg'inlari oqibatida o'lkadagi tub aholining qo'shni mamlakatlarga ko'plab ketib qolish hollari ro'y berdi. Shuningdek, mustaqillik uchun yuz minglab kurashchilar bolshevizmga qarshi kurash frontlarida, bir milliondan ortiq turkistonliklar ochlik va epidemiyalardan halok bo'ldilar. Iqtisodiy tanglik siyosiy tanglik bilan birga qo'shib ketdi. 20-yillarning boshidagi Turkiston Respublikasining siyosiy hayoti beqarorligi, milliy istiqloqlolchilik harakatining yanada kuchayishi bilan ajralib turardi [4; 35-b.]. Qizil askarlar naysasi yordamida zo'rlik bilan o'rnatilgan sovet tuzumi o'lkaning asosiy aholisi tomonidan o'z manfaatlariga zid hokimiyat sifatida qabul qilindi. Bolsheviklar tomonidan tuzilgan sovetlar va ularning ijroqo'mlari aholi orasida obro'-e'tiborga ega emasdi. Mahalliy aholi o'ziga qulay bo'lgan barcha vositalar bilan joylarda sovet davlati tuzilmalari o'rnatilishiga qarshilik ko'rsatdi, ularni saylashda imkoni boricha qatnashmadi. Natijada "sovet qurilishi", asosan, yevropaliklar yashaydigan shaharlarda, ishchi posyolkalarida, temir yo'l stansiyalarida o'rnatildi, lekin mahalliy aholi istiqomat qiladigan asosiy joylarga hali yoyilmagan edi.

Turkistondagi bu vaziyat Rossiyaning siyosiy rahbariyatini nihoyatda tashvishga solib qo'ydi. Chunki uning umumiy siyosati avvalo o'lkada o'z ta'sirini kuchaytirishga va shu asosda iqtisodiyot, madaniyat, siyosiy sohani boshqarishni sotsializm mohiyatidan kelib chiqqan holda markazlashtirishga qaratilgan edi. Markazning Turkistondagi "ishonchli" hokimiyat tuzilmalari dastavval Turkkommissiya va 1920-yilning yozida tashkil topgan RKP(b) MKning Turkbyurosi

edi. Ular Kremdagi rahbariyatning siyosati, roli va manfaatlari ifodachisi bo'lib, haqiqatda TASSRdagi barcha hukumat tuzilmalari ustidan nazorat qilib turardi. Ular bilan bir qatorda TASSRda Oliy Xalq Xo'jalik Kengashi (OXXK), Butunittifoq Favqulodda Komissiyasi (BFK)ning, Ittifoq xalq komissarliklarining vakillari ham bor bo'lib, O'rta Osiyo mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini Markaz manfaatlari yo'liga yo'naltirib turishlari lozim edi.

RKP(b) MKning Tashkiliy byurosi o'zining 1924-yil 31-yanvardagi majlisida boshqa masalalar bilan bir qatorda Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining milliy-hududiy chegaralanishi to'g'risidagi masalani ham ko'rib chiqdi va Y.E.Rudzutakka mazkur respublikalarning mas'ul xodimlari bilan birgalikda bu g'oyani amalda qanday ro'yobga chiqarish mumkinligini oldindan muhokama qilib ko'rishni topshirdi. Mazkur g'oyaning paydo bo'lishi o'zining ilk tarixiga ega bo'lib, u 20-yillarning dastlabki davridagi voqealar bilan chambarchas bog'liq edi. Biroq haqiqiy sabablari o'z ildizlari bilan ancha ilgoriga borib taqaladi. Bolsheviklar partiyasining markaziy organi o'z qarori bilan chorizmning Turkiston mustamlakasini boshqarish sohasidagi imperiyacha siyosati prinsiplariga sodiqligini isbotladi, mazkur siyosat "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomga (1891-yil) muvofiq o'tkazib kelinayotgan edi. O'rta Osiyoning ma'muriy-hududiy xaritasini qaytadan tuzish borasidagi o'z miqyoslari va oqibatlarini bilan ulkan bo'lgan bolshevikcha bu harakat chorizm nizomining takomillashgan shaklini amalda ro'yobga chiqarish uchun qo'yilgan dastlabki qadam edi.

Markazning yuqori siyosiy rahbariyati uchun Turkistonni bo'lib yuborish, uni yagona davlat tuzilmasi sifatida yo'q qilish g'oyasi ustivor bo'lib qoldi. U Turkistonni saqlab qolish o'zining imperiyacha maqsadlariga xavf tug'diradi deb hisoblardi, chunki "Turkiston" unda yashovchi barcha xalqlar ongida ularning tarixiy Vatani ramzi sifatida tushunilardi, uning mustaqilligi va ozodligi uchun kurashda doimo birlashtiruvchi ta'sirchan omil bo'lib kelgan edi. 1920-yil 20-iyunda RKG(b) MK Siyosiy byurosi majlisida Turkiston masalalari yuzasidan qabul qilingan to'rtta qaror keyinchalik "RKP(b) ning Turkistondagi asosiy vazifalari to'g'risida", degan umumiy nom bilan mashhur bo'lib, alohida bandida TurkMIQga "Turkistonning ma'muriy okruglarini uning milliy tarkibiga muvofiq qayta taqsimlashga kirishish" topshirilgan edi. "Turkistonni milliy avtonom viloyatlarga (Respublikalarga) bo'lishni darhol amalga oshirib bo'lmaydi,-deb ta'kidlagan edi Turkkomissiya a'zosi G.Safarov Markaziy Kengashga yo'llagan maktubida,-biroq u yaqin oradagi davr uchun haqiqiy yo'l-yo'riq sifatida qabul qilinishi lozim". Bolsheviklar O'rta Osiyodagi xalqlarni milliy guruhlariga ajratish uchun ularning etnik jihatdan o'xshashlarini birlashtirishni lozim ko'rdi va bu maqsadda til vositasidan foydalandi. Bolsheviklarning bu sohadagi faoliyati aniq yo'nalishga ega bo'lib, turkiy tilning ayrim lahjalarini isloh qilish va ular negizida har bir milliy tuzilma (o'zbek, turkman, qozoq va hokazo) mo'ljallangan o'z milliy tillarini yaratishdan iborat edi. 1922-yildayoq o'zbek tili va grammatikasi bo'yicha birinchi o'lka syezdi o'tkazildi, u o'zbek tilini sun'iy ravishda "klassik yevropacha grammatika tizimi"ga keltirishga asos soldi. Ana shu grammatik so'z yasovchi modellar ta'sirida so'z iboralari va grammatik qurilishning yangi shakllari vujudga keldi, bu hol o'zbek tili leksikasi asosini tashkil etuvchi umumturkiy leksikaning muayyan darajada o'zgarishiga ta'sir qilmay qolmadi.

Mintaqa xalqlariga majburan tiqishtirilgan bu siyosatni amalga oshirish uchun vaqt va mablag' bilan bir qatorda katta kuch-g'ayrat sarflash talab qilindi. Birinchi davrda milliy chegaralanish g'oyasi paydo bo'lgan 1920-yildan 1924-yilgacha, uni amalda ro'yobga chiqarish boshlangan paytgacha, uning mafkuraviy, siyosiy, madaniy-ma'naviy asoslash va shundan



keyingi harakatlar uchun zamin tayyorlash mexanizmi ishga tushirildi [5; 88-b.]. “Yagona turkiy millat bo‘lmaganidek, yagona turkiy madaniyati va yagona turkiy til ham yo‘q” degan shiorlar ostida to‘rt yil mobaynida dastlab Turkiston, keyinroq Buxoro va Xorazm respublikalari xalqlari ongiga keng miqyosda tazyiq o‘tkazildi, milliy o‘xshash tuzilmalarning shakllanish jarayonidagi integratsiya sun‘iy ravishda jadallashtirildi.

Ikkinchi davr. 1924-yilda bevosita milliy chegaralanish o‘tkazildi, uni boshdan oxirigacha RKP(b) MK rahbariyati va uning muxtor vakillari rahbarligida O‘rta Osiyo partiya tashkilotlari amalga oshirdilar. Mahalliy xalqlarning xohish-irodasi mutlaqo hisobga olinmadi va ularni o‘rganish mexanizmi ishlab chiqilmadi.

O‘rta Osiyo xalqlari uchun bu chegaralanish va tashkil etilgan yangi “milliy davlatchilik” ularning bundan keyingi taraqqiyotiga yangi nozik farqlar olib kirdi. O‘rta Osiyo davlatchiligining ming yillik rivojlanish tarixiga putur yetkazildi. Hukmron sulolalarning tez-tez almashishiga, makon-hudud mezonlarining o‘zgarishiga qaramay, O‘rta Osiyo davlatchiligining asosini tashkil qilgan muhit uning aholi tarixan turli etnik guruhlardan tashkil topganligi va uning tarqoq holda joylashganligi, uning o‘ziga xos bo‘lgan xo‘jalik, maishiy, diniy, ma‘naviy-madaniy hayotining mushtarakligi o‘zgarmay qolaverardi. Har bir etnik guruh o‘zining muayyan joyiga ega bo‘lgani holda bu mushtaraklikning tarkibiy, o‘zgarmas teng qiymatga ega bo‘lgan qismi bo‘lib turaverardi. Endi esa, ittifoqdosh, muxtor respublikalar va viloyatlarning tashkil topishi bilan millatlarni farqlash, tabaqalash joriy etildi. Bu farq faqat ularning tashkil topish maqomi bilangina emas, balki uning ichidagi mazkur tuzilmaga nom bergan etnosning nomi va “oz sonli millatlar” bilan ham yaqqol ko‘zga tashlanar edi.

**Xulosa.** Shunday qilib, millatning bir qismi o‘z ota-bobolari yerida yashab, mehnat qilsada, rasmiy ta‘rifga ko‘ra, “oz sonli millat”ga aylanib qolgan edi, bu esa ularning ongiga ta‘sir qilmasdan qolmasdi, o‘z huquqlarining qandaydir poymol qilinganligida deb tushunardilar, bu hol tuzilmalar ichidagi etno-milliy jarayonlarga shak-shubhasiz salbiy ta‘sir ko‘rsatardi [6]. Vaziyatning murakkabligi “bo‘lib yuborilgan etnoslar” muammosi bilan yanada chuqurlashardi, chunki yangi milliy tuzilmalar “tituli” millatning asosiy qismini o‘zida jamlagan bo‘lsada, tarqoq holda joylashish tufayli ko‘p etnik guruhlardan iborat jamiyat ham bo‘lib qolgandi, ularning har birida o‘xshash etnoslarning ma‘lum qismi mavjud edi.

Aslida, bolsheviklar andozasidagi milliy-hududiy chegaralanish O‘rta Osiyo xalqlari o‘rtasidagi bo‘lajak millatlararo munosabatlar jarayonlari ostiga ma‘lum vaqtda portlaydigan mina qo‘yish degan gap edi, ular favqulodda vaziyatlarda portlab, turli nizolar va keskin holatlar keltirib chiqarishi muqarrar edi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Jo‘rayev N., Karimov Sh. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi yillarida. Toshkent.: “Sharq”, 2005. – 720 bet.
2. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent.: “Sharq”, 1998. – 496 bet.
3. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. Toshkent.: “O‘qituvchi”, 2005. – 326 bet.
4. Ahmedov E.A. Saydaminova Z. O‘zbekiston Respublikasi qisqacha ma‘lumotnoma. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2006. – 68 bet.
5. Ziyoyev H. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi. Toshkent.: “Sharq”, 2001. – 438 bet.

6. Norbekov, A. (2023). Legal nihilism: ideological foundations. *Modern Science and Research*, 2(9), 88-90.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/10 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).